

TARIX

<p>1. [1,3 ball]</p> <p>Buyuk Ipak yo'lining ochilishi qaysi tarixiy jarayon ortida yuz bergan?</p> <p>A) yuechji qabilalari tomonidan Yunon-Baqtriya davlatining bosib olinishi B) xitoyliklarning boshqa mamlakatlarga ko'proq ipak sotishga intilishlari C) xunn qabilalarining Xitoyning shimoliy tumanlarini talon-taroj qilishlari D) Xitoya dunyo bozorida xaridorgir bo'lgan qog'ozning kashf etilishi</p>	<p>3. [1,3 ball]</p> <p>X asrda Germaniya qirolligida hukmronlik qilgan sulolani aniqlang.</p> <p>A) Gabsburglar B) Shtaufenlar C) Frankoniyaliklar D) Saksoniyaliklar</p>												
<p>2. [2,2 ball]</p> <p>Puni urushining Rim davlati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan jihatini aniqlang.</p> <p>A) Rim davlatining Karfagenga qarshi urushda mag'lub bo'lishi B) Rim O'rtayer dengizida hukmronlik qilish yo'lidagi o'zining so'nggi dushmanini mag'lub etishi C) Rim-Finikiya madaniy va savdo almashinuvining boshlanishi D) Gannibalning fillar bilan Alp tog'idan oshib o'tishi va Rim hududiga bostirib kirishi</p>	<p>4. [3,2 ball]</p> <p>Quyidagi tarixiy voqealar (ma'lumotlar) to'g'ri xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping.</p> <p>1) Turkiya (Usmonli davlati) da qabul qilingan konstitutsiyaga ko'ra, mamlakatda ikki palatali parlament joriy etildi; 2) Fransiya-Prussiya urushi boshlandi; 3) Vena Kongressi bo'lib o'tdi; 4) Sudanda mustaqil mahdiylar davlati tuzildi; 5) Ingliz-bur urushi boshlandi; 6) Braziliyada monarxiya quladi.</p> <p>A) 5, 6, 1, 4, 3, 2 B) 6, 2, 1, 4, 5, 3 C) 3, 2, 1, 4, 6, 5 D) 3, 4, 6, 1, 5, 2</p>												
<p>5. [3,2 ball]</p> <p>Quyida berilgan atamalar va ularning izohi to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.</p> <table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tbody> <tr> <td style="width: 20%; padding: 5px; vertical-align: top;"> I Liberalizm </td> <td style="width: 80%; padding: 5px;"> a parlamentarizm, demokratik erkinliklar va xususiy tadbirkorlik tarafdarlarini birlashtirgan ijtimoiy-siyosiy oqim </td> </tr> <tr> <td style="padding: 5px; vertical-align: top;"> II Patsifizm </td> <td style="padding: 5px;"> b majburiy kuchga ega bo'lmagan xalqaro aktning umumiyligi qoidalari va maqsadlarini ifodalandigan hujjat </td> </tr> <tr> <td style="padding: 5px; vertical-align: top;"> III Xartiya </td> <td style="padding: 5px;"> c davlatlar o'rtasida olib borilayotgan urushga qo'shilmaslik imkonini ta'minlovchi huquqiy maqom </td> </tr> <tr> <td style="padding: 5px; vertical-align: top;"> IV Izolatsionizm </td> <td style="padding: 5px;"> d biron-bir davlatning xalqaro muammolarni hal qilishda ishtirok etishdan bosh tortish siyosati </td> </tr> <tr> <td style="padding: 5px; vertical-align: top;"> e </td> <td style="padding: 5px;"> f zo'ravonlikni bartaraf etish uchun unga qarshi kurash mafkurasi </td> </tr> <tr> <td style="padding: 5px; vertical-align: top;"> f </td> <td style="padding: 5px;"> urushayotgan tomonlardan birining urush harakatlarini, qurolli qarshilik ko'rsatishni davom ettirishdan voz kechishi </td> </tr> </tbody> </table>	I Liberalizm	a parlamentarizm, demokratik erkinliklar va xususiy tadbirkorlik tarafdarlarini birlashtirgan ijtimoiy-siyosiy oqim	II Patsifizm	b majburiy kuchga ega bo'lmagan xalqaro aktning umumiyligi qoidalari va maqsadlarini ifodalandigan hujjat	III Xartiya	c davlatlar o'rtasida olib borilayotgan urushga qo'shilmaslik imkonini ta'minlovchi huquqiy maqom	IV Izolatsionizm	d biron-bir davlatning xalqaro muammolarni hal qilishda ishtirok etishdan bosh tortish siyosati	e	f zo'ravonlikni bartaraf etish uchun unga qarshi kurash mafkurasi	f	urushayotgan tomonlardan birining urush harakatlarini, qurolli qarshilik ko'rsatishni davom ettirishdan voz kechishi	<p>A) I-c, II-e, III-f, IV-d B) I-a, II-f, III-b, IV-c C) I-c, II-f, III-b, IV-c D) I-a, II-e, III-b, IV-d</p>
I Liberalizm	a parlamentarizm, demokratik erkinliklar va xususiy tadbirkorlik tarafdarlarini birlashtirgan ijtimoiy-siyosiy oqim												
II Patsifizm	b majburiy kuchga ega bo'lmagan xalqaro aktning umumiyligi qoidalari va maqsadlarini ifodalandigan hujjat												
III Xartiya	c davlatlar o'rtasida olib borilayotgan urushga qo'shilmaslik imkonini ta'minlovchi huquqiy maqom												
IV Izolatsionizm	d biron-bir davlatning xalqaro muammolarni hal qilishda ishtirok etishdan bosh tortish siyosati												
e	f zo'ravonlikni bartaraf etish uchun unga qarshi kurash mafkurasi												
f	urushayotgan tomonlardan birining urush harakatlarini, qurolli qarshilik ko'rsatishni davom ettirishdan voz kechishi												

6.

[3,2 ball]

Quyida berilgan atamalar va ularning izohi **to‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping.**

I Delimitatsiya	a davlat chegaralarini tuzilgan shartnomaga muvofiq tavsiflash va xaritalashtirish asosida belgilash
II Proteksionizm	b qarorlar qabul qilish bo‘yicha vakolat va majburiyatlarni markazdan boshqa tashkilotlarga o‘tkazish
III Dotatsiya	c ma’lum xarajatlarni qoplash uchun iqtisodiyotning bir subyekti tomonidan ikkinchisiga qaytarib bermaslik sharti bilan pul mablag‘i berilishi
IV Integratsiya	d ichki bozorni ma’lum chekllovlar orqali chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan siyosat
	e suveren davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni
	f Milliy valutaning amaldagi kurs bo‘yicha boshqa xorijiy valutalarga erkin va cheklanmagan miqdorda almashtirilishi

A) I-a, II-b, III-f, IV-c B) I-a, II-c, III-d, IV-e C) I-b, II-d, III-f, IV-c D) I-a, II-d, III-c, IV-e

7.

[2,2 ball]

Tarixiy shaxsnii aniqlang.

XX asrning birinchi choragida Farg‘ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi harakat rahbarlaridan biri edi. Uning qo‘smini 1919-yil Jalolobod va O’sh shaharlarini egallab, Eski Marg‘ilon shahrini sovet qo‘sminidan ozod qildi. U boshchiligidagi qo‘shtining 1919-yilgi hujumlari Farg‘ona vodiysini larzaga keltirdi.

- A) Fayzulla Xo‘jayev B) Dukchi eshon
C) Madaminbek D) Mustafo Cho‘qay

9.

[2,2 ball]

Tarixiy davlatni aniqlang.

Ushbu davlatda Burjua inqilobi XVIII asrning so’nngi choragida boshlandi. Bu inqilob butun dunyo tarixi uchun ham ma’lum ma’noda burilish nugtasi bo‘ldi. U olg‘a surgan “Ozodlik, Tenglik, Birodarlik!” g‘oyalari butun dunyo xalqlarining keyingi rivojiga arzigulik ta’sir ko‘rsatdi.

- A) Germaniya B) AQSh
C) Buyuk Britaniya D) Fransiya

8.

[2,2 ball]

Tarixiy shaxsnii aniqlang.

U 1922-yilda hukumat boshlig‘i etib tayinlandi. Dastlab mavjud siyosiy partiylar va kasaba uyushmalari faoliyatini taqiqlamadi. 1938-yil irqiy qonunlar chiqardi, 1939-yil boshida esa Deputatlar palatasini targatib yuborib, uning o‘rniga Katta fashistik kengash tuzdi.

- A) Benito Mussolini B) Nevill Chemberlen
C) Eduard Daladye D) Adolf Hitler

10.

[2,2 ball]

Quyida berilgan ma’lumotlar qaysi tarixiy davlat haqida ekanligini aniqlang.

Ushbu davlat IV asrning 70-yillaridan V asrning ikkinchi yarmigacha O‘rta Osiyoda hukmronlik qilgan. Bu davlatga turkiy qabilalardan biri asos solgan bo‘lib, davlatning markazi Zarafshon vohasida bo‘lgan. Dastlab Zarafshon vohasini egallab, Janubga harakat qilgan va ancha zaiflashib qolgan Kushon podsholigi o‘rnini egallagan. Bu davlat 120 yildan oshiqroq faoliyat yuritgan.

- A) Tohiriyalar davlati B) Somoniylar davlati
C) Xioniyalar davlati D) Eftallar davlati

11.	[3,2 ball]	
		<p>Ma'lumki, Qo'qon xoni Umarxon davrida Buxoro amiri Haydar Usmonli davlati sultonii Mahmud II ga Xiva va Qo'qon xonliklari ustidan arz qilib xat jo'natgan. Amir Haydar o'z xatida ma'lum bir hududlar avvaldan Buxoroga bo'yusunib kelganligini, Qo'qon va Xiva xonlari esa Buxoro amirligining olivy hokimiyatini tan olmayotganligini qayd etgan.</p> <p>Quyida keltirilganlardan ushbu xatda qayd etilgan hududlarni aniqlang.</p> <p>1) Movarounnahr; 2) Sharqiy Turkiston; 3) Qo'qon; 4) Dashti Qipchoq; 5) Xorazm; 6) Marv; 7) Hirot; 8) Balx; 9) Ko'lob; 10) Badaxshon.</p> <p>A) 1, 4, 5, 6, 7, 9, 10 B) 1, 3, 4, 6, 8, 9, 10 C) 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 D) 2, 3, 5, 7, 8, 9, 10</p>
12.	[1,3 ball]	
		<p>Quyida berilgan ma'lumotlardan qaysi biri XIX asr O'rta Osiyo davlatlari tarixi uchun xos?</p> <p>A) Xorazmning Muhammad Shayboniyxon tomonidan bosib olinishi B) Buxoro amirligining chor Rossiysi tomonidan protektoratga aylantirilishi C) Buxoro xonligining Eron shohi Nodirshoh tomonidan bosib olinishi D) Abulxayrxon tomonidan "O'zbek ulusi" davlatiga asos solinishi</p>
13.	[3,2 ball]	
		<p>1924-yil 31-oktabrda Fayzullo Xo'jayev raisligida tashkil etilgan O'zbekiston SSR Muvaqqat inqilobiy komiteti (Markaziy revkom) tarkibiga kiritilgan shaxslarni aniqlang.</p> <p>1) Rustam Islomov; 2) Usmonxo'ja Po'latxo'jayev; 3) Abdulla Rahimboyev; 4) Is'hoqxo'ja Xo'jayev; 5) Sulton Qori; 6) Rafiq Nishonov; 7) Vladimir Ivanov; 8) A.N.Kuropatkin.</p> <p>A) 2, 3, 5, 8 B) 1, 3, 5, 7 C) 1, 4, 6, 8 D) 2, 4, 6, 7</p>
14.	[1,3 ball]	
		<p>1992-yilning 8-dekabrigacha mustaqil O'zbekiston Respublikasining vaqtinchalik konstitutsiyasi vazifasini bajargan hujjatni aniqlang.</p> <p>A) O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti B) O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun C) O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonun D) O'zbekiston SSRning Mustaqillik Deklaratsiyasi</p>

15.

[2,2 ball]

Mustaqil O'zbekiston tarixi bilan bog'liq
to'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.

1) Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Prezidentining shu joylardagi vakili hisoblanadi; 2) 2000-yildan boshlab mamlakatimiz tarixida ilk bor O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis'i ikki palatadan-Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat tarzda ish boshladi; 3) Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining hukumati hisoblanib, Oliy Majlisning qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishida rahbarlikni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organidir; 4) 1995-2004-yillarda Oliy Kengash nomi bilan atalgan 150 deputatdan iborat bir palatali parlament shakkantirildi; 5) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi "Mahalliy davlat hokimiyat asoslari" deb nomlanib, unda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tizimi, vazifalari, tuzilish tartibi mustahkamlangan; 6) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarga bo'yungan holda ish yuritadi; 7) O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi tashkil etilgandan hozirgi kunga qadar Prezident saylovlarda hamda parlament saylovlarda ishtirok etib, parlamentda o'z fraksiyisini tashkil etishga erishgan.

- A) 1, 3, 5, 7 B) 2, 3, 5, 6 C) 2, 4, 5, 7
D) 1, 4, 6, 7

16.

[2,2 ball]

Quyidagi tarixiy voqealar (ma'lumotlar)
to'g'ri xronologik ketma-ketlikda
ko'rsatilgan javobni toping.

- 1) Movarounnahrda Shayboniyalar sulolasini hokimiyat tepasiga keldi;
 - 2) G'aznaviyalar davlati Sharqning eng qudrathli davlatlaridan biriga aylandi;
 - 3) Buxoro amirligiga asos solindi;
 - 4) Qutayba ibn Muslim boshliq arab qo'shinlari Movarounnahrda harbiy yurishini boshladi;
 - 5) Safforiylar davlatiga asos solindi;
 - 6) Tohiriyalar davlatiga asos solindi.
- A) 2, 1, 3, 4, 6, 5 B) 4, 6, 5, 2, 1, 3
C) 5, 2, 1, 3, 4, 6 D) 1, 3, 4, 6, 5, 2

17.

[2,2 ball]

Xaritada yulduzcha ostida berilgan **davlat (hudud)** tarixiga oid ma'lumotlarni toping.



- 1) 1811-yilda mustaqil deb e'lon qilindi;
- 2) 1822-yilda mustaqil deb e'lon qilindi;
- 3) mustaqil deb e'lon qilingunga qadar Ispaniya mustamlakasi bo'lgan; 4) mustaqil deb e'lon qilingunga qadar Portugaliya mustamlasi bo'lgan; 5) XIX asr oxirida Buyuk Markaziy Amerika Respublikasi tarkibiga kirdi;
- 6) XIX asr oxiriga kelib mamlakatda monarxiya tuzumi quladi.

- A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 6

18.

[2,2 ball]

Tarixiy voqealardan natijasi o‘zaro **mos berilgan qatorlarni aniqlang.**

Nº	Voqealardan natijasi o‘zaro mos berilgan qatorlarni aniqlang.	Natija
1.	"Ems depeshasi"	Fransiya-Prussiya urushi boshlandi
2.	"Qrim urushi"	Turkiya ustidan amalda G‘arb davlatlarining "homiyligi"ni o‘rnatgan Parij tinchlik shartnomasi imzolandi
3.	Meksikada Dias diktaturasining o‘rnatalishi	mamlakat chet el davlatlarining yarimmustamlakasiga aylandi
4.	Ispaniyada fuqarolar urushi	mamlakatda general Primo de Rivera diktaturasi o‘rnatildi
5.	Boqi Muhammadning hokimiyatga kelishi	Buxoro xonligida Ashtarkoniylar sulolasini hukmronligi boshlandi
6.	Birinchi afyun urushi	Buyuk Britaniya Bengaliyani bosib oldi
7.	Yapon-Xitoy urushi (1894-1895)	Uzoq Sharqda Yaponiya gegemonligi uchun yo‘l ochildi

- A) 1, 2, 3, 5, 7 B) 2, 3, 4, 5, 6 C) 2, 4, 5, 6, 7 D) 1, 3, 4, 6, 7

19.

[3,2 ball]

Jadvalda harflar bilan belgilangan kataklarga quyida berilgan ma’lumotlardan **moslarini qo‘yib to‘g‘ri javobni toping.**

Asr	O‘zbekiston tarixidagi voqealardan	Jahon tarixidagi voqealardan
a	Yettisuv o‘lkasida Qarluqlar davlatining tashkil topishi	b
c	d	Angliyada «Qizil va oq gullar» urushi
X	e	f
g	Anushteginiylar sulolasidan bo‘lgan xorazmshoh Takash hukmronligining boshlanishi	h
i	j	Angliyaning Respublika deb e’lon qilinishi
XIX	k	l

Ma’lumotlar: 1) Xorazmda afrig‘iylar sulolasini hukmronligining barham topishi; 2) VIII asr; 3) Simonoseki sulhining imzolanishi; 4) XII asr; 5) Buyuk Karlning Ispaniyaga qarshi yurishining muvaffaqiyatsiz tugashi; 6) Abulg‘ozzi Bahodirxonning Xiva xonligi taxtiga chiqishi; 7) XVIII asr; 8) Angliya qiroli Ioann hukmronligining boshlanishi; 9) XV asr; 10) Said Olimxonning Buxoro amirligi taxtini egallashi; 11) Angliya va Shotlandiya o‘rtasidagi uniya(ittifoq)ning parlament tomonidan qonuniylashtirilishi; 12) XVII asr; 13) Yettisuvgacha bo‘lgan yerlarning Xorazmshohlar davlati tasarrufiga o‘tishi; 14) Muhammad Aminxonning Xiva xonligi taxtiga chiqishi; 15) XVI asr; 16) Abu Said Mirzoning turkmanlarga qarshi jangda halok bo‘lishi; 17) Xitoyda Min sulolasini hukmronligining boshlanishi; 18) Chexiya davlatining tashkil topishi; 19) Angliya taxtida turgan oranyelar sulolasining oxirgi vakilini vafot etishi


- A) a-2, b-1, c-15, d-16, e-5, f-19, g-4, h-3, i-12, j-6, k-6, l-11
 B) a-4, b-8, c-9, d-16, e-1, f-17, g-2, h-5, i-12, j-6, k-10, l-3
 C) a-4, b-18, c-7, d-6, e-13, f-5, g-2, h-8, i-15, j-16, k-14, l-11
 D) a-2, b-5, c-9, d-16, e-1, f-18, g-4, h-8, i-12, j-6, k-14, l-3

20.

[3,2 ball]

Quyida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilib Eyler-Venn diagrammasiga **mos keladigan javoblarni aniqlang**.

XIX asrning II yarmi – XX asrning I yarmi
Buyuk Britaniya Fransiya



a) Millatlar Ligasi nomidan Osiyo va Afrikadagi katta hududlarni boshqarishga mandat olgan;
b) Entoni Bler hukumati davrida mamlakat Iroqqa qarshi koalitsiyada ishtirok etdi;
c) Madagaskarni o'z mustamlakasi deb e'lon qildi; d) "Monro doktrinasi" ga tayanib Samoa orollarini qo'lga kiritdi; e) Panama kanali qurilishi huquqini AQShga berdi; f) Uchinchi Respublika Konstitutsiyasi qabul qilindi;
g) Ikkinchiji jahon urushi davrida AQSh bilan Atlantik xartiyani imzoladi; h) mamlakatda Milliy blok deb ataluvchi burjua partiyalaridan iborat guruh tuzildi; i) Misr ustidan o'z protektoratini bekor qilib, uning to'liq mustaqilligini tan oldi.

- A) I-d, f, h; II-b, c, i; III-g
B) I-e, g, i; II-c, f, h; III-a
C) I-b, e, i; II-c, f, g; III-a
D) I-c, f, g; II-b, i, h; III-d

21.

[1,3 ball]

G'arbiy Yevropada XIII-XV asrlarda Ispaniya, Italiya, Janubiy Fransiyani dengiz orqali Vizantiya hamda Osiyo mamlakatlari bilan bog'lash uchun xizmat qilgan **savdo yo'lining nomini aniqlang**.

- A) Shimoliy yo'l B) Shvabiya C) Ganza
D) Levant

22.

[2,2 ball]

XIX asrning 70-80 yillarda Germaniya iqtisodiyoti gurkirab rivojlana boshladi. Quyida keltirilgan omillardan qaysilari Germanianining iqtisodiy tarqqiyotiga **sabab BO'L MAGAN?**

- 1) Germanianing birlashtirilganligi;
2) Fransiyaning talanishi; 3) Panama kanalining ochilishi; 4) Porfirio Dias diktaturasining o'rnatilishi; 5) sanoatning tez sur'atlar bilan harbiylashtirilishi.
A) 1, 2 B) 3, 4 C) 2, 4 D) 3, 5

23.

[2,2 ball]

Quyida berilgan davlatlardan qaysilari 2002-yil Kopengagen (Daniya) da bo'lib o'tgan uchrashuvda **Yevroittifoqqa qabul qilingan?**

- 1) Turkiya; 2) Kipr; 3) Belorus; 4) Malta;
5) Vengriya; 6) Ukraina.
A) 1, 3, 5 B) 1, 4, 6 C) 2, 4, 5 D) 2, 3, 6

24.

[1,3 ball]

Buxoro xonligida davlat muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan **soliq qanday atalgan?**

- A) ixrojot B) madadi lashkar C) zabitona
D) zakot

25.

[1,3 ball]

Buxoro amirligida mavjud bo'lgan **dorug'ayi muzd qanday yig'im bo'lgan?**

- A) xirmonlarni xatga olgani uchun amaldorga qo'shimcha maosh uchun yig'iladigan mablag'
B) bog'lar va polizlardan olingan daromadlar uchun alohida yig'iladigan mablag'
C) xon farmonlarini e'lon qiluvchi jarchi foydasiga yig'iladigan mablag'
D) soliq haqidagi xabarni yetkazganlik uchun yig'iladigan mablag'

26.

[2,2 ball]

Ikkinchiji jahon urushi yillarda butun O'zbekiston mehnatkashlarining kuchlari bilan barpo etilgan **kanallarni aniqlang**.

- 1) Shimoliy Farg'ona; 2) Kosonsoy;
3) So'x-Shohimardon; 4) Uchqo'rg'on;
5) Rudasoy; 6) Xonbandi; 7) Yuqori Chirchiq.
A) 2, 4, 5, 6 B) 2, 3, 4, 5 C) 1, 5, 6, 7
D) 1, 3, 4, 7

27.

[2,2 ball]

O‘zaro muvofiqlik saqlangan javobni toping.

- I. Qadimgi Misr; II. Qadimgi Yunoniston;
III. Mesopotamiya; IV. Qadimgi Rim;
a) Mars; b) Sina; c) Anubis; d) Demetra;
1) marhumlar va mumiyolanganlar xudosi;
2) dehqonchilik va hosildorlik ilohasi; 3) Urush xudosi; 4) Oy xudosi.

- A) I—c—1; II—d—2; III—b—4; IV—a—3
B) I—d—1; II—a—3; III—b—4; IV—c—2
C) I—c—2; II—d—1; III—a—3; IV—b—4
D) I—a—4; II—d—2; III—c—1; IV—b—3

28.

[1,3 ball]

Muqaddas Rim imperiyasi imperatori Fridrix II tomonidan **qaysi universitetga asos solingan?**

- A) Bolonya B) Neapol C) Sevilya
D) Parij

29.

[1,3 ball]

Chingizxonning Movarounnahr istilosi, chingiziylar hukmronligining o‘rnatalishi, Dashti Qipchoqda Abulxayrxon davlatining tashkil etilishi, Shayboniyxonning harbiy yurishlari, uning o‘limidan so‘ng Movarounnahrda vujudga kelgan ahvol, Abdullaxon II ning mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish yo‘lida olib borgan kurashi tarixiga bag‘ishlangan **asar nomi va uning mualifini aniqlang.**

- A) "Fathnomayi sultoniy", Mir Olim Buxoriy
B) "Shayboniynoma", Kamoliddin Binoiy
C) "Abdullanoma", Hofiz Tanish al-Buxoriy
D) "Yilnomalar to‘plami", Muhammad Hakimxon

[2,2 ball]

30.

[2,2 ball]

Mualliflar va ularning asarlari **to‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping.**

- | | |
|-----------------------------|--|
| 1. Muhammad Sharif Buxoriy | a) "Xoqonga foydali maslahatlar" |
| 2. Muhammad Husayni Buxoriy | b) "Shayboniynoma" |
| 3. Muhammad Amin Buxoriy | c) "Fathnomayi sultoniy"
d) "Qibla tomonini topish ma‘rifati" |
| | e) "Yilnomalar to‘plami" |
| | f) "Ubaydullanova" |

- A) 1-a, 2-d, 3-f B) 1-d, 2-f, 3-e
C) 1-a, 2-f, 3-c D) 1-d, 2-b, 3-f

31.

[2,2 ball]

Chizmada nomi keltirilgan shaxslar va ularga tegishli ma’lumotlar **to‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping.**

- | | |
|---------------|--|
| 1. V.Grinyar | a) gidratlanish reaksiyasini kashf etdi |
| 2. P.Griss | b) xilma-xil organik moddalarni sintez qilish usulini kashf etdi |
| 3. S.Arrenius | c) yorug‘likning elektromagnit nazariyasini isbotladi
d) diazotlash reaksiyasini kashf etdi |
| | e) metallurgiyada avtomatashtirishni yaratdi |
| | f) elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasini yaratdi |

- A) 1-b, 2-d, 3-f B) 1-a, 2-d, 3-f
C) 1-b, 2-e, 3-c D) 1-a, 2-e, 3-c

32.

[1,3 ball]

1928-yilda ixtirochilar Boris Grabovskiy va Ivan Belyanskiylar tarixda ilk bor harakatlanuvchi tasvirni elektron-nur trubkasi yordamida masofaga uzatishni **qaysi shaharda amalga oshirganlar?**

- A) Parijda B) Nyu-Yorkda C) Moskvada
D) Toshkentda

33-35-test topshiriqlariga mos keluvchi javoblarni (A-F) javob variantlaridan tanlang.

<p>33. [2,2 ball] Berilgan voqealardan qaysi biri eng avval sodir bo'lgan?</p> <p>34. [2,2 ball] Qaysi voqea natijasida Sudet viloyati Germaniyaga berildi?</p> <p>35. [2,2 ball] Boltiqbo'yи davlatlaridan biri tarixida yuz bergan voqeani aniqlang.</p>	<p>A) Prezident Taft tomonidan "dollar diplomatiyasi" e'lon qilindi.</p> <p>B) Myunxen kelishuvi imzolandi.</p> <p>C) Fransiya tomonidan Tunis bosib olindi.</p> <p>D) "Sayudis" tashkiloti tuzildi.</p> <p>E) Germaniya bilan Versal tinchlik bitimi imzolandi.</p> <p>F) Harbiy to'ntarishdan keyin Parvez Musharraf hokimiyat tepasiga keldi.</p>
--	--

36. Muqaddas Rim imperiyasi 962-1806-yillarda mavjud bo'lgan.

[1,1 ball]

a) Ushbu imperiya asoschisini yozing.

Javob: a) _____

[1,1 ball]

b) Ushbu imperiyada eng uzoq muddat hukmronlik qilgan sulola nomini aniqlang va yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

37. XX asrning boshida Usmonli davlatiga qarshi urush boshlagan Bolqon ittifoqi tuzildi.

[1,5 ball]

a) Bu urush tarixga qaysi nom bilan kirganligini aniqlang va uni yozing.

Javob: a) _____

[1,7 ball]

b) Ushbu urush natijasida 1912-yilning 28-noyabrida mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatni aniqlang va yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

38. 1970-yillar oxiri – 1980-yillar boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlarida diktatorlik rejimlariga qarshi kurash faollashdi.

[1,5 ball]

a) Qaysi davlatda bu kurash 1979-yilda inqilobga aylandi?

Javob: a) _____

[1,7 ball]

b) Ushbu kurashning natijasi ularoq 1980-yillarning oxirida Chilida kimning diktaturasi yakun topdi?

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

39. XX-XXI asrlar chegarasida Fransiya barcha muhim ko'rsatkichlar bo'yicha dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoriga kirdi.

[1,5 ball]

a) 2012-yil Fransiyada prezidentlik saylovlarida g'olib chiqqan shaxsni aniqlang.

Javob: a) _____

[1,7 ball]

b) Ushbu saylovda g'alaba qozongan shaxs qaysi partiya yetakchisi bo'lgan?

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

40. VIII asr o'rtalarida Yettisuv o'lkasida qarluqlar o'z davlatiga asos soldi.

[1,1 ball]

a) Qarluq qabilalarining boshqa turkiy qabilalar bilan yagona ittifoqqa birlashuvi natijasida X asrda vujudga kelgan davlat nomini yozing.

Javob: a) _____

[1,1 ball]

b) XI asr boshlarida ushbu davlat G'aznaviylar bilan qaysi hudud uchun kurash olib borganligini aniqlang va hudud nomini yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

41. Arab adibi Johiz turkiy xalqlarning xislatlari haqida bitilgan "Manoqib al-atrok" asarida: "Sosoniy-forslar barcha xalqlardan ... (a) sohasida, xitoyliklar – hunarmandchilikda, yunonlar – ilm-fanda, turklar ... (b) sohasida ustundirlar", – deb yozadi.

Nuqtalar o'rniga mos keluvchi javoblarni yozing.

[1,1 ball]

a)

Javob: a) _____

[1,1 ball]

b)

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

42. 1512-yilda shayboniylar Movarounnahrni ikkinchi marta egalladi.

[1,1 ball]

a) Qaysi shayboniy sulton mamlakat viloyatlarini qayta taqsimladi? (shaxs nomini yozing)

Javob: a) _____

[1,1 ball]

b) Ushbu shaxs Ko'chkunchixonga qaysi hududni meros mulk qilib berdi? (hudud nomini yozing)

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

43. 1873-yilning avgustida Xiva xoni K.P.Kaufman tomonidan taklif etilgan sull shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi. Ushbu shartnama Xiva xoni Rossiya imperiyasi tobelligiga o'tganligini ko'rsatardi.

[1,1 ball]

- a) Ushbu davrda Xiva xonligida hukmronlik qilgan xon nomini yozing.

Javob: a) _____

[1,1 ball]

- b) Xiva xoni va fon Kaufman tomonidan imzolangan ushbu shartnomaning nomini yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

44. Turkiston fronti qo'mondoni M.Frunzening quyida keltirilgan so'zlarini o'qing va shu asosda berilgan topshiriqlarni bajaring.

"... Turkiston marvaridi bo'lgan Farg'ona ikki yildan ortiqroq vaqtadan beri qonli urush maydoni holatidadir... Bu yerdagi sovet hokimiyati ilk tuzilish davrida rus va yerlik ishchi, dehqon ommalarini o'ziga tortish o'rniiga mehnatkash xalqni o'zidan uzqolashtirish uchun qo'lidan kelgancha harakat qildi... Bu yerda harakat qilgan qizil askar qismlari, inqilobni himoya qilgan ba'zi rahbarlar yerli mehnatkash xalqning tub manfaatlari bilan hisoblashmadi, uning arz-u dodiga qulog solmadi. **Harakat** shu asosda vujudga keldi".

[1,1 ball]

- a) Harakatning sovet davridagi rasmiy nomini yozing.

Javob: a) _____

[1,1 ball]

- b) Ushbu harakatning Farg'ona vodiysidagi yetakchilaridan birini nomini yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

45. XV asrda Movarounnaharda islohotlar, ichki va tashqi savdoni rivojlantirishga juda katta ahamiyat berilgan.

[1,1 ball]

- a) 1428-yilda fulusiy pullar islohotini amalga oshirgan hukmdorni nomini yozing.

Javob: a) _____

[1,1 ball]

- b) Ushbu hukmdor qaysi shaharlarda zarbxonalar tashkil etib bir xil vazndagi salmoqdor fuluslarni zarb ettirgan? (1 ta shahar nomini yozing)

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblariningizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.